



2018 yilning yanvar - fevral oylarida QURILISH ISHLARI

RAQAMLAR:

Qurilish-montaj ishlari hajmi - **4174,7 mlrd. so'mni** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **95,1 %ni** tashkil etdi;

Yirik qurilish-pudrat tashkilotlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi - **16,4 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi - **54,4 %**


Qurilishda norasmiy sektorning ulushi - **29,2 %**

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Respublikada 4174,7 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 685,6 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,1 %ni tashkil qilib, o'tgan oydagi o'sish suratiga nisbatan 8,9 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar 2268,6 mlrd. so'm yoki 103,1 %ni hamda norasmiy sektor 1220,5 mlrd.so'm yoki 97,4 %ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari





Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

2018 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari umumiy
hajmida hudularning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)

Hududlar	Jami		shu jumladan: hududiy qurilish pudrat tashkilotlari	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	4174,1	95,1	1917,6	104,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	203,2	102,5	111,1	95,7
viloyatlar:				
Andijon	266,5	102,8	154,2	104,1
Buxoro	317,3	92,5	145,6	93,7
Jizzax	166,9	100,5	66,3	113,4
Qashqadaryo	378,4	100,8	161,2	110,7
Navoiy	219,7	114,9	103,7	89,2
Namangan	213,8	105,0	115,6	104,8
Samarqand	337,0	101,9	155,4	102,1
Surxondaryo	227,5	102,5	103,3	108,1
Sirdaryo	70,6	101,6	50,8	107,9
Toshkent	227,8	102,0	78,9	104,1
Farg'ona	322,9	101,1	189,2	100,0
Xorazm	194,8	97,1	98,1	106,7
Toshkent sh.	966,8	108,4	384,1	102,1

Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Toshkent shahrida bajarilgan bo'lib, respublikada bajarilgan jami qurilish ishlarining 23,2 %ini tashkil etdi, Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari esa 9,1 %ni, Samarqand viloyatida 8,1 %, Farg'ona viloyatida 7,7 % va Buxoro viloyatida 7,6 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (davomi)



Respublikada amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich eng past 1,7 %ni tashkil etdi. Shuningdek, Jizzax va Xorazm viloyatlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 4,0 % va 4,7 % ni tashkil

etgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,9 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Katta hajmda amalga oshirilayotga qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- Navoiy viloyatida - "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi liniyasini nasos stantsiyalarini rekonstruksiya qilish, "Ko'kpatas" va "Daugiztau" konlarini qazib olish texnologiyasini takomillashtirish hisobidan qurish;

- Toshkent shahrida - ko'prik va Yunusobod metro liniyasi qurilishi, Toshkentda temir yo'l halqasining qurilishi, Toshkent pedagogika institutini rekonstruksiya qilish, 2-aeroportni rekonstruksiya qilish, milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;




- Namangan viloyatida - Chust va Uychi tumanlarida ko'prik qurilishi, Norin daryosi hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash va ko'prik qurilishi hisobiga amalga oshirildi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (davomi)

Hududlarning Respublika bo`yicha jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi, %da



Qurilish ishlari hajmi tarkibi






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan.


Qurilish ishlari hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (davomi)

Jami qurilish ishlarida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish bo'yicha qurilish ishlarining ulushi (% da)



Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari barcha hududlarda katta ulushni tashkil etmoqda. Ayniqsa Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida mos ravishda 83,9, 86,0 va 86,1 %ni tashkil etib, ushbu hududlarda ta'mirlash bo'yicha qurilish ishlaridan ko'ra yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha qurilish ishlari ko'proq amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56